



BANK TIZIMI BARQARORLIGINING XALQARO ME'YORLAR ASOSIDA TAHLILI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,
"Bank ishi" kafedrasida kafedrasida professori
Toshkent moliya instituti
E-mail: fkholmamatov@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4186-0691

ANALYSIS AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE STABILITY OF THE BANKING SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Kholmamatov Farhodjon Kubayevich,
Doctor of Philosophy in Economics,
Professor of the Department of "Banking".
Tashkent Institute of Finance
E-mail: fkholmamatov@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4186-0691

JEL Classification: E5, E58

Annotasiya. Maqolada bank tizimi barqarorligi tushunchasining nazariy jihatlarini yoritilgan, bank tizimi barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimiz bank tizimining joriy ko'rsatkichlari tahlil etilgan, bank tizimi barqarorligida xalqaro nazorat tashkilotlarining talablari tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan. Shuningdek, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining bank kapitali, bank risklari darajalari hamda banklarning likvidlik ko'rsatkichlarining turlari tahlil etilgan.

Abstract. The article describes the theoretical aspects of the concept of stability of the banking system, analyzes the current indicators of the banking system of our country according to the indicators of the stability of the banking system, analyzes the requirements of international control organizations in the stability of the banking system, and formulates relevant conclusions

and proposals. Also, the bank capital of the Basel Committee on Banking Supervision, levels of bank risks, and types of liquidity indicators of banks were analyzed.

Keywords: banking system, stability, Basel Committee, risk coverage, credit risks, bank capital ratio, leverage, bank liquidity indicators.

Kalit so'zlar: bank tizimi, barqarorlik, Bazel qo'mitasi, risk qoplamasi, kredit risklari, bank kapitali monandligi, leveraj, bank likvidlik ko'rsatkichlari.

Kirish. Ma'lumki, Bazel standartlari bo'yicha kapital va risk inobatga olingan aktivlar summasi nisbati bank kapitalining yetarilishini aniqlovchi eng muhim umumlashtiruvchi ko'rsatkich deb tan olingan. Bu shundan dalolat beradiki, bank kapitali va risk o'rtasida doimiy bog'liqlik mavjud va ularning bir-biriga ta'siri bank

faoliyatida doimo diqqat markazida bo'lib kelgan.

Barqaror moliyaviy tizim - bu moliyaviy vositachilar, bozorlar va bozor infratuzilmasi, jamg'armalar va investorlar o'rtasida mablag'larning uzluksiz aylanishiga yordam beradigan va shu orqali iqtisodiy faollikning o'sishiga yordam beradigan tizimdir. Aksincha, moliyaviy beqarorlik bu vositachilik jarayonining jiddiy buzilishi bo'lib, real iqtisodiyotga potensial zarar etkazishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash istiqbolga mo'ljallangan vazifa bo'lib, u moliyaviy tizimdagi zaifliklarni aniqlashga va iloji bo'lsa, yumshatish choralarini ko'rishga qaratilgan. Ushbu zaifliklarning ba'zilar makroiqtisodiy o'lchovga ega, masalan, uy xo'jaliklari va korporativ sektor balanslari holatidagi o'zgarishlar, kredit va aktivlar bozorlaridagi o'zgarishlar, bularning barchasi iqtisodiyot ichidagi moliyaviy risklar darajasi va taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqa zaifliklar moliyaviy vositachilar va moliyaviy bozor ishtirokchilari o'zlarining turli risklarini baholash va boshqarish usullari bilan bog'liq. Bundan tashqari, barqaror moliyaviy tizim aholining moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchini susaytirmaydigan tarzda inqirozga uchragan moliyaviy institutlarni boshqarish uchun yaxshi ishlab chiqilgan inqirozni boshqarish mexanizmlari mavjud.

Material va metod. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda "bank tizimining moliyaviy barqarorligi" tushunchasi aksariyat olimlarning diqqat-e'tiborida turibdi. Ushbu tushunchaga berilayotgan ta'riflarning ko'pligi buning dalilidir.

AQShlik iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan "tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o'rtasidagi nisbatning oqilona

darajasini ta'minlashga qaratilishi lozim", deb hisoblaydi.[2]

O.I.Lavrushinning ta'kidlashicha, bank tizimining barqarorligini ta'minlash uning sifat xususiyatlarini o'rganishga tizimli yondashishni taqozo etadi. Keng ma'noda tizimli yondashuv - bu har qanday ob'ektlarni tizim sifatida ko'rsatish va ushbu tizimlarni tahlil qilish orqali o'rganish metodologiyasi.[3]

Bir guruh olimlarning (Gorbunov A., Krotov V., Мартыщенко L.) fikriga ko'ra, agar tizim barqaror muvozanat holatida bo'lsa, tashqi muhit unga ta'sir qilganida, u ma'lum vaqtdan keyin o'zining dastlabki holatiga qaytadi.[4]

D.S. Vaxrushev: "Iqtisodiy tizimning dinamik barqarorligini ta'minlash bir vaqtning o'zida uning ham barqaror, ham o'zgaruvchan bo'lish qobiliyatidadir". Bu ma'noda barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektik birlik va o'zaro bog'liqlikdadir.[5]

V.S.Zaxarov "bank tizimining barqarorligi va tijorat banking faoliyat sifati deganda ko'p o'lhovli makonda harakatning optimal traektoriyasidan minimal chetga chiqishning ma'lum bir vaqt oraliq'ida harakatlanishi amaliy qobiliyati tushunilishi kerak", deya ta'kidlaydi.[6]

H.Azimova bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida "tijorat banklarida kpeditlashni asosan bozop shaptlapi acocida amalga oshipish, banklapning davlat pecupclapiga qapamligini pacaytipish, banklapda xizmat ko'pcatishni modepnizasiyalash, camapali infpatuzilma yapatish va banklap faoliyatini avtomatlashtipish opqali tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshipish yanada takomillashtirish lozim" ekanligi aniqlangan.[7]

R.Bozorov "tijorat banklari barqarorlik turlari istalgan tijorat banklari uchraydi va uni banklar o'zaro bir-birini bog'liq holda faoliyatida tahlil etib borish

natijasida, barqarorlikning turlari ichida eng asosiy, barqarorlik bazasi bu moliyaviy barqarorlik ekanligi, moliyaviy barqarorlik tijorat banklari faoliyatini birlamchi va asosiy turi ekanligi" aniqlangan.[8]

Natijalar. Bank kapitalini doimiy tarzda shakllantirib borish nihoyatda muhimligi 2007 yilda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yana bir bor o'z isbotini topdi. Inqirozga eng ta'sirchan va eng katta yo'qotishlar ham bank tizimida yuz berdi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari moliyaviy holati keskin darajada yomonlashib ketdi, ularning kapitalizatsiya hajmi esa qisqarib ketdi. Bank kapitali eng barqaror resurs hisoblanganligi sababli

bankning barqarorligini oshiradi, shuning uchun unga qat'iy talablar qo'yiladi, doimiy oshirib borish tavsiya etiladi. Bu borada eng keng qo'llaniladigan hujjat Bazel qo'mitasining bank kapitaliga qo'yilgan talablari hisoblanadi. Qo'mitaning hujjatlari doimiy tarzda takomillashib boradi va bir birini inkor qilmagan holda to'ldirib boriladi. Xususan, Bazel III talablarida ham kapital yetarliligi va tarkibiga nisbatan aniq talablar o'rnatilgan.

Bazel III standartiga binoan banklarning umumiy kapitali tarkibi quyidagicha bo'lishi lozim:

1. I darajali kapital:
 - a. Asosiy I darajali kapital;
 - b. Qo'shimcha I darajali kapital.
2. II darajali kapital.

1-jadval.

Bank kapitali monandlik ko'rsatkichlari¹, foizda

Kapital monandlik ko'rsatkichlari	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti	min.-9	min.-9	min.-13	min.-13	min.-13
	15,6	24,1	18,4	17,5	17,8
I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti	min.-9,5	min.-9,5	min.-10	min.-10	min.-10
	14,3	20,1	15,2	14,6	14,5
I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsienti	min.-7,5	min.-7,5	min.-8	min.-8	min.-8
	14,2	20,1	15,2	14,6	14,4

¹ <https://cbu.uz/oz/-Ўзбекистон> Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари

Mamlakatimiz bank tizimi kapital yetarlilik darajasini tahlil qiladigan bo'lsak, Bazel talablaridan ancha baland ekanligini ko'rishimiz mumkin. Regulyativ kapitalning yetarlilik darajasi 2020 yildan boshlab 9 foizdan 13 foizga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich oxirgi yillarda o'rtacha 17 foizni tashkil etmoqda. Xususan, 2022 yilda minimal talabdan 1,4 marta yuqori bo'lib, 17,8 foizni tashkil etgan.

I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti esa oxirgi besh yilda 14-20 foiz diapozonida tebranishni qayd etgan. Ko'rsatkichning minimal darajasi 2020 yildan boshlab 0,5 foizli bandga oshdi va 10 foiz etib belgilandi. Oxirgi yilda belgilangan me'yordan 1,5 baravar yuqori va 14,5 foizni tashkil etmoqda.

I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsienti esa 2020 yildan boshlab 7,5 foizdan 8 foizga oshirildi. Mazkur ko'rsatkich ham belgilangan talablardan deyarli 1,5 marta yuqori.

Umuman olganda bank tizimi kapital yetarliligi darajasi xalqaro me'yorlarni ortig'i bilan bajargan. Ammo oxirgi yillarda biroz pasayish tendensiyasiga ega ekanligini kuzatish mumkin. Buning asosiy ikkita sababini keltirish mumkin: bank aktivlarining o'sishi kapital o'sishidan yuqori ekanligi va riskka tortilgan aktivlar summasining oshganligi. Bu bank tizimida daromadlilikni oshishiga xizmat qilishi mumkin.

Kontragent kredit riski hisoblanadigan standart hamda ichki reytingga asoslangan yondashuvga qo'shimcha tarzda bank kutilayotgan birjadan tashqari derivativlar bozor qiymati o'zgarishi orqali yuzaga keladigan zararlar uchun kapital qismini ajratishi lozim. Bunday kredit risklari kredit qiymati korektirovkasi (CVA – Credit Value Adjustment) deb nomlanadi hamda uning hisoblanishi har bir bankning kontragent kredit riskini va foiz riskini hisoblash metodidan kelib chiqib belgilanadi.

2-jadval

Kontragentning tashqi reytingiga asoslangan risk darajalari [11]

Reyting	Risk darajasi (Wi)	Reyting	Wi	Reyting	Wi
AAA	0,70%	BBB	1,00%	CCC	10,00%
AA	0,70%	BB	2,00%		
A	0,80%	B	3,00%		

Bank nazorati bo'yicha Bazel Qo'mitasi kapital himoya buferi to'g'risida shunday ta'rif beradi [11]: kapital himoya buferi – bu banklar ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash maqsadida iqtisodiy nochor davrdan boshqa paytda tuziladigan buferdir. Kontratsiklik bufer – bu banklarning umumiy kredit o'sishi ortiqchaligi

kuzatilgan davrda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarga qarshi joriy qilinadigan zaxira.

Xalqaro darajada aktiv banklar uchun bufer miqdori ular kredit riski mavjud bo'lgan har bir mamlakatdagi bufer talablarining o'rtacha tortilganiga teng bo'ladi.

3-jadval

Bir bank uchun minimum kapital himoyasi standartlari [11]

Asosiy Birinchi darajali kapital koeffitsiyenti	Minimum kapital himoyasi koeffitsiyentlari (bank foydasini cheklash foizi sifatida) ²
4,5% - 5,125% (=4,5%+0,625%)	100%
>5,125%-5,75% (=5,125%+0,625%)	80%

² Bunda banklar o'z foydasini berilgan foiz miqdorida zahiraga ajratishlari lozim, qolgan qismi taqsimlanishi mumkin.

>5,75% - 6,375% (=5,75%+0,625%)	60%
>6,375% - 7,0% (=6,375%+0,625%)	40%
>7,0 %	0%

Bunda kredit riski mavjud bo'lgan mamlakat kredit riskiga garov bo'lgan subyektning mamlakati olinadi. Uning miqdori riskka tortilgan aktivlarning 0-2,5%i orasida o'rnatiladi.

Bazel qo'mitasining tavsiyasi bo'yicha kontrtsiklik kapitalni shakllantirishning zarurligi hamda uning miqdorini aniqlash uchun qo'mita quyidagini tavsiya qiladi:

- Kredit/YaIM nisbatining harakatlanish trendini aniqlash;
- Kredit/YaIM nisbatining joriy koeffitsiyentini hisoblash;
- Aniqlangan trend hamda koeffitsiyent orasidagi farqni hisoblash (GAP);
- Aniqlangan GAP ni bufer miqdorini aniqlash uchun qo'llash.

4-jadval

Bir bank uchun minimum kapital himoyasi standartlari [11] (2,5 % kontrtsiklik bufer talabi ham yuklangan paytda)

Asosiy Birinchi darajali kapital koeffitsiyenti (zararni to'liq qoplovchi kapitalni o'z ichiga olgan holda)	Minimum kapital himoyasi koeffitsiyentlari (bank foydasini cheklash foizi sifatida)
4,5% - 5,75% (=5,125%+0,625%)	100%
>5,75% - 7,0% (=6,375%+0,625%)	80%
>7,0% - 8,25% (=7,0%+0,625%)	60%
>8,25% - 9,5% (=8,25%+0,625%)	40%
>9,5 % (=7%+2,5%(kontrtsiklik bufer))	0%

Qo'mita bir necha mamlakatlarning avvalgi ko'rsatkichlariga asoslangan holda kontrtsiklik buferni joriy qilishning quyidagi chegaralarini tavsiya qiladi:

- Agarda GAP 2% \geq 0% bo'lsa, bufer 0 ga teng;

- Agarda GAP 2% \leq 10% bo'lsa, bufer 0-2,5% ga teng;
- Agarda GAP 10% dan ko'p yoki teng bo'lsa, bufer 2,5% ga teng;

5-jadval.

Bank tizimi aktivlarining risklilik darajasi bo'yicha tasnifi³, foizda


Balans aktivlarining risklilik darajasi	0%	20%	35%	50%	100%	150%	200%
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh	V guruh	VI guruh	VII guruh
2018	9,6	32,6	0,6	4,6	52,1	0,1	0,3
2019	12,7	21,9	0,6	5,8	52,1	6,2	0,7
2020	9,3	19,8	0,9	5,1	59,1	2,8	2,9
2021	12,5	19,5	0,6	3,7	45,7	11,5	6,5
2022	23,1	8,9	0,8	3,8	52,3	5,6	5,3

³ <https://cbu.uz/oz/-Ўзбекистон> Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари

Bank tizimi aktivlarining risklilik darajasi eng yuqori bo'lgan 5-guruh bo'lib, 100 foizli riskka tortilgan aktivlar toifasiga kiradi. Ushbu guruhning o'rtacha ulushi 52,3 foizni tashkil etmoqda. 1-guruhning ulushi oxirgi yillarda sezilarli darajada ortganligini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizcha, mazkur holatni Markaziy bank va hukumatning qimmatli qog'ozlari savdosining oshishi bilan izohlash mumkin. Hukumat va Markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlarning risk darajasi 0 foiz bo'lib, riskdan holi aktivlar guruhiga

kiritiladi. 7-guruhning so'nggi yillarda ortishini bevosita berilgan avtokreditlarning ortishi bilan asoslash mumkin.

Bazel qo'mitasi inqirozlarning salbiy oqibatlarini e'tiborga olib, oddiy, transparent, riskka asoslanmagan leveraj koeffitsientini ishlab chiqdi. U I darajali kapitalni umumiy aktivlarning nomoddiy aktivlar chegirilgandan so'ng qolgan summasiga bo'lish orqali aniqlanadi.



1-rasm. O'zbekiston bank tizimi leveraj koeffitsienti⁴, foizda

⁴ <https://cbu.uz/oz/-Ўзбекистон> Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари

So'nggi besh yillikda bank tizimi leveraj koeffitsienti belgilangan 6 foizli me'yordan 2-2,5 marta yuqori bo'lishi barqaror kapital bazasi orqali ta'minlanmoqda.

Leveraj koeffitsienti asosan I darajali kapitalning oshishiga hamda aktivlar, balansdan tashqari instrumentlar, hosilaviy instrumentlarning summasiga bog'liq. Shuningdek, I darajali kapital asosiy kapitaldan chegirmalarning summasi ham hisobga olinadi, ya'ni aktivlar summasidan ayriladi.

Bazel qo'mitasi o'zining 2010 yilning dekabr oyida chiqargan "Likvidlilik riskini baholash, uning standarti va monitoringi

xalqaro yondashuvlar" [10] nomli hujjatida likvidlilik talabini ikkiga ajratadi. Ularning biri bir oylik, ya'ni qisqa muddatli davrda ssenariy stress-testga bardosh bera olish imkoniyatini beruvchi joriy likvidlilik koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio – LCR) bo'lsa, ikkinchisi banklar uzoq muddatli davrda barqarorligini oshirish hamda banklar faoliyatini doimiy ravishda barqaror manbalar bilan moliyashtirishni rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan sof barqaror moliyalashtirish ko'rsatkichi (Net Stable Funding Ratio – NSFR) hisoblanadi.

Joriy likvidlilikni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\text{Joriy likvidlilik koeffitsienti (LCR)} = \frac{\text{Yuqori darajadagi likvid aktivlar}}{\text{30 kun mobaynida sof pul chiqimlari}} \geq 100\%$$

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsientini joriy qilishdan maqsad investitsion banklarning innovatsiyalari, balansdan tashqari moddalar riskliligi hamda boshqa aktivlar va faoliyatlar ularning

likvidlilik riski profillaridan kelib chiqib eng kam miqdorda ularni zarur bo'lgan barqaror manbalar bilan moliyalashtirishdir.

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR)} = \frac{\text{Mavjud barqaror manbalar}}{\text{Zarur barqaror manbalar}} > 100\%$$

Ushbu standart mohiyatiga to'liq amal qilish maqsadida, markaziy banklarga moliyalashtirish manbasi sifatida qaralmasligi uchun, markaziy bankdan olingan, muddati uzaytirilgan, doimiy ochiq bozor operatsiyalaridan tashqarida bo'lgan kreditlar ushbu koeffitsientni hisoblashda e'tiborga olinmaydi. Talab qilingan barqaror manbalar miqdorini hisoblash uchun bankda mavjud va bank tomonidan moliyalashtiriladigan aktivlar yig'indisini

har bir aktiv turidan kelib chiqib tegishli "talab qilingan barqaror manbalar koeffitsienti"ga ko'paytirish kerak. Yakunda jami miqdorlar yig'indisi hisoblanadi.

Yuqori likvid aktivlarga past darajadagi "talab qilingan barqaror manbalar koeffitsienti" qo'llanilsa, nisbatan likvidligi past, ya'ni nochorlik holatlarida barqaror moliyalashtirilishi lozim bo'lgan aktivlarga yuqoriroq koeffitsient qo'llaniladi.

6-jadval.

Bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari⁵

Sana	Yuqori likvidli aktivlar, mlrd. co'm	Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati,	Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti, foizda (minimal talab - 100 foiz)	Sof barqaror moliyalashtirish me'yori, foizda (minimal talab - 100 foiz)	Lahzali likvidlilik koeffitsienti, foizda (minimal talab - 25 foiz)
------	--------------------------------------	---	--	--	---

⁵ <https://cbu.uz/oz/-Ўзбекистон> Республикаси Марказий банкининг маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари

		foizda			
1	2	3	4	5	6
01.01.2019	20 202,4	9,4	170,7	107,9	30,9
01.01.2020	30 873,8	11,3	208,5	112,8	47,8
01.01.2021	50 475,7	14,2	224,5	109,9	67,4
01.01.2022	75 992,2	17,7	189,6	115,4	99,3
01.01.2023	104 472,9	19,4	211,6	115,6	110,1

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari belgilangan barcha me'yorlardan ortiqchasi bilan bajarilgan. Bank aktivlariga parallel ravishda yuqori likvidli aktivlar summasi oxirgi besh yilda 5 martaga oshgan. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlarga nisbati esa 10 foiz bandga oshib, 2023 yil boshiga 19,4 foizni tashkil etgan.

Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientining minimal darajasi 100 foiz bo'gan holda deyarli 2 baravar ortig'i bilan yuqarilgan. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori ham 100 foizdan ortiq. Lahzali likvidlilik koeffitsienti esa oxirgi yillarda keskin oshib ketgan va minimal darajaga nisbatan 4 marta yuqori.

Bundan xulosa qilish mumkinki, bank tizimi likvidliliigi yuqori bo'lganligi ijobiy holat, albatta. Ammo o'ta yuqori likvidlilik bank tizimi daromadining pasayishiga, rinqtabellik ko'rsatkichlarining tushib ketishiga olib keladi.

Xulosa. Bazel III standartining alohida banklar uchun ta'siri:

nisbatan zaif banklar bozordan chiqarilishi mumkin, chunki yomon iqtisodiy sharoitlarda, shuningdek kuchaytirilgan nazorat ta'sirida banklar kapital yetarliligini va moliyalashtirishni yetarli darajada ta'minlashlari qiyinlashadi. bu esa o'z navbatida, raqobatbardosh faoliyat olib borishga to'sqinlik qiladi;

kapital talablarining, moliyalashtirish qiymatining ortishi, shuningdek qayta tashkil etish va nazorat organlarining yangi

talablarini bajarish joriy faoliyatga hamda bank marjasiga ta'sir qiladi;

uzoq va qisqa muddatli likvidlik koeffitsientlarining joriy qilinishi banklarni qisqa muddatli moliyalashtirishdan uzoq muddatli moliyalashtirishga o'tishga undaydi;

yuridik shaxslarni qayta tashkil etish. Savdo operatsiyalarida nazoratning kuchayishi, shuningdek minoritar investitsiyalar hamda moliyaviy tashkilotlarga qilingan investitsiyalarga yangicha yondashuv natijasida bank guruhlarini qayta tashkil etish, shuningdek qo'shilish jarayonlari, investitsion portfollardan hamda kompaniyalarga qilinadigan qo'yilmalardan voz kechishga olib keladi.

Bazel III standartining butun moliya tizimi uchun ta'siri:

banklar inqirozi tizimli riskining kamayishi. kapital buferlari va likvidlilik talablarining oshirilishi, shuningdek risklarni boshqarish standartlarining yaxshilanishi alohida banklarning bankrot bo'lishi xavfini kamaytirishi hamda moliyaviy tashkilotlarning o'zaro aloqalarining pasayishiga olib keladi;

kreditlash hajmining kamayishi. garchi ushbu standartni to'liq joriy etish uzoq muddatni talab qilishi ushbu kamayishni oldini olsa-da, kapital va likvidlilik talablarining oshirilishi bank faoliyatining qisqarishiga yoki moliyalashtirish qiymatining oshishiga olib keladi;

investorlarning bank sektori aksiya hamda obligatsiyalariga bo'lgan qiziqishining kamayishi. Dividendlar kamaygan vaziyatda (ya'ni kapital bazasining qayta ko'rib chiqilishi natijasida) aksiyalar emissiyasi investorlarni unchalik jalb etmaydi.

Xalqaro Bazel qo'mitasining asosiy tamoyillari asosida tijorat banklarida samarali nazorat tizimining o'rnatilishi banklar majburiyatlarining o'z vaqtida va

to'liq qoplanishi, banklar kapitalini moliyaviy barqaror manbalar hisobidan shakllantirish va ularni samarali joylashtirishga erishish banklarning moliyaviy holatini mustahkamlash, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, natijada, xalqimiz turmush darajasining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 10.06.2022 y., 06/22/152/0507-son.
2. Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: “Санкт-Петербург Оркестр”, 1994. – С. 90-93.
3. Банковское дело: Учебник/ Под ред. О.И. Лаврушина.- М.: Финансы и статистика, 1998.- С. 20.
4. Горбунов А., Кротов В., Мартыщенко Л. Финансовая устойчивость социально-экономической системы.- СПб.: МФИН, 200.- С. 9.
5. Вахрушев Д.С. Самоорганизация и динамическая устойчивость экономических систем.- Кострома.: КГУ им. Н.А. Некрасова, 2004.- С. 136
6. Захаров В.С. О рисках банковской системы//Деньги и кредит.- 2004.- № 3.- С. 23.
7. Азимова Х.Э. Тижорат банкларида молиявий барқарорликнинг аҳамияти. // International Journal of Economy and Innovation. Volume: 24 | 2022. – Pp. 543-548.
8. Бозоров Р.Х. Тижорат банклари молиявий барқарорлигини таъминлашнинг назарий ва методологик асослари. // “UzBridge” электрон журнали. – 2019. -№2. -82-90 стр.
9. Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlari
10. “Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems”(Iyun, 2011).36-bet
11. “Basel III global regulative framework for more resilient banks and banking systems”, 2010-yil dekabr. 60-bet.